


2018 yil yanvar-noyabr oylarida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Bugungi kunda xizmatlar sohasi O'zbekiston iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2018 yil yanvar-noyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 5812,8 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,4 % ni tashkil etdi.


2018 yilda ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm



Ma'lumot uchun: 2017 yil yanvar-noyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hajmi 4904,4 mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2018 yil yanvar-noyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o'tgan yilga nisbatan 908,4 mlrd. so'mga oshdi. Joriy yilning oldingi (2018 yil yanvar-oktabr oylari) davriga nisbatan xizmatlar hajmi 599,3 mlrd. so'mga ko'paydi.

2018 yilda ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm



Joriy yilning oldingi davriga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga savdo xizmatlari (194,7 mlrd.so'mga), transport xizmatlari (162,0 mlrd. so'mga), moliyaviy xizmatlar (67,5 mlrd. so'mga) hamda aloqa va axborotlashtirish (26,6 mlrd. so'mga) kabi xizmatlar hajmining oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.


Ma'lumot uchun: 2017 yilning mos davrida savdo xizmatlari 243,5 mlrd. so'm, transport xizmatlari 470,7 mlrd. so'm, moliyaviy xizmatlar 42,9 mlrd. so'mga oshgan.

2018 yil yanvar-noyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

	Hajmi, mln. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar - jami	5812818,5	107,4
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	330069,9	114,1
moliyaviy xizmatlar	581329,6	123,8
transport xizmatlari	1526948,6	103,8
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1423950,7	102,6
yashash va ovqatlanish xizmatlari	256492,7	106,4
savdo xizmatlari	1950788,7	103,6
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	162004,4	106,0
ta'lim sohasidagi xizmatlar	261971,8	127,6
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	109387,5	101,6
ijara xizmatlari	159692,8	104,6
kompyuterlar va ma'ishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	138336,6	106,0
shaxsiy xizmatlar	127487,8	101,8
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	54867,3	117,3
boshqa xizmatlar	153440,8	108,8

Eng yuqori o'sish sur'atlari ta'lim sohasidagi xizmatlar (127,6 %) moliyaviy xizmatlar (123,8 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (117,3 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (114,1 %), boshqa xizmatlar (108,8 %), kabi xizmat turlarida qayd etildi.


2018 yil yanvar-noyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Nisbatan pastroq o'sish sur'atlari sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (101,6 %), shaxsiy xizmatlar (101,8 %), savdo xizmatlar (103,6 %) kabi xizmat turlarida kuzatildi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining deyarli uchdan bir qismini savdo xizmatlari tashkil etadi. 2018 yil yanvar-noyabr oylarida uning ulushi 33,6 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori ulushlarni transport xizmatlari (26,3 %), moliyaviy xizmatlar (10,0 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (5,7 %) egallaydi.

2018 yil yanvar-noyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi




2018 yil yanvar-noyabr oylarida savdo xizmatlari hajmi 1950,8 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 33,6 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan savdo xizmatlarining hajmi 359,2 mlrd. so'mga oshdi.

Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, uning ulushi 80,5 % ni tashkil etadi.

2018 yil yanvar-noyabr oylarida savdo xizmatlari tarkibi, %



- **Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar**
- **Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlar (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)**
- **Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar**

Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 13,4 % ga yetdi.


Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 6,1 % ni egallaydi.

Zamonaviy bank xizmatlari ko'rsatish, jumladan "raqamli" banklar va chakana xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan bank bo'linmalarini tashkil etish uchun innovatsion bank texnologiyalarini joriy qilish, masofadan turib bank xizmatlarini ko'rsatish, to'lov tizimini yanada rivojlantirish moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga yordam beradi.

2018 yil yanvar-noyabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 581,3 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 123,8 % ni tashkil etdi.


Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar (86,5 %) katta salmoqqa egadir.

2018 yil yanvar-noyabr oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %



Ushbu davrda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 256,5 mlrd. so'mga teng bo'ldi. 2017 yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan o'sish 6,4 % ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning ulushi 4,4 % ga yetdi.

2018 yil yanvar-noyabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 87,7 % ulush bilan etakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 12,3 % ga to'g'ri keladi.

Xizmatlar sohasi statistikasi boshqarmasi

65-230-83-12

65-230-83-13